

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi

// 26.03.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/davlat-dasturida-belgilangan-vazifalar-ijrosi>



Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida mamlakat rivojlanishiing ustuvor yondashuvlari belgilab berildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni kamaytirish masalasi ham shular jumlasidandir.

"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida kimyo sanoati korxonalarining issiqxona gazlari ajratmalarini xatlovdan o'tkazish va uglerodni tartibga solish mexanizmlari ta'sirini baholash ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya markazi bilan hamkorlikda issiqxona gazlarini aniqlash, hisoblash va xatlovdan o'tkazish bo'yicha yagona qo'llanma (metodika) ishlab chiqilishi bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati